XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-avgust VI-11-76-8-111-K/25 Denov tumani

2025-yilning 2-choragi davomida Denov tumani mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatgichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2022-yil 8-apreldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi QQ-331-IV-sonli qarorlari muvofiq tuman budjetining joriy yil 2-choragi davomida shakllangan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2020-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-657-son Qonunining 14-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2022-yil 8-apreldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tuman tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi QQ-331-IV-sonli qarori muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘i **5 253 054,0 ming so‘mni**tashkil etganligi.

shundan:- **245 543,0 ming so‘m** Davlat aktivlarini sotishdan tushganligi;

- **1013 822,0 ming so‘m** yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushganligi;

- 3 993 689,0 ming so‘m daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tushganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Joriy yil 2-choragida shakllangan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘larining qolgan qismi **5 253 054,0 ming so‘m** quyidagi xarajatlarga yo‘naltirilgan.

jumladan;

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘liq tadbirlarga **1 263 107,0 ming so‘m ya’ni 24,0 foizi;**

Boshqaruv organlari bilan bog‘liq tadbirlarga **575 882,0 ming so‘m ya’ni 11,0 foizi;**

Boshqa xarajatlarga **3 414 065,0 ming so‘m ya’ni 65,0 foizi** mablag‘ yo‘naltirilganligi ilova muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalliy budjetining qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari tuman mahalliy budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Denov tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



ABROROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani Kengashining
2025-yil 19-avgustdagi
VI-11-76-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Denov tumani mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

(ming so‘m)

T/r	Tashkilotlar nomi	№	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida	Izoh (manbasi)
a	1	2	3	4	5	6
	Jami shakllangan manba			**5 253 054,0**	**100%**	
	Jami ajratilgan mablag‘			**5 253 054,0**	***100,0%***	
	Taqsimlanmagan mablag‘			**0,0**	***0,0%***	
I.	**Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘liq tadbirlariga**			***1 263 107,0***	***24,0%***	

1	Denov tuman hokimligiga	1.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-5072-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xat boshiga asosan 2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budjetlari qo‘shimcha mablag‘larining eng kamida 30 foizi "Ochiq budjet" portaliga jamg‘armasiga yo‘naltirishga	1 198 107,0		*Daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		1.2	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 312-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xat boshiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining prognozi orttirib bajarilgan qismining kamida 15 foizi miqdorida mablag‘ ajratish uchun	65 000,0		*Daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
II.	**Tuman hokimligi va boshqa boshqaruv organlariga**			**575 882,0**	***11,0%***	
2	Denov tuman hokimligiga	2.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-sonli qaroriga asosan Denov tumani hokimligining xodimlarini rag‘batlantirishga	257 670,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		2.2	Viloyat "Axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalarini Rivojlantirish Markazi" MChJga	35 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		2.3	Denov tuman hokimligi Qo‘riqlash xizmati uchun	150 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		2.4	Denov tuman hokimligi elektr-energiyasi uchun to‘lov	50 212,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		2.5	Tuman hokimligining xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash materaillari sotib olish uchun	45 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib*

						bajarilgan qismidan
		2.6	Tuman hokimligining xizmat avtomashinalariga ehtiyot qisimlar sotib olish uchun	26 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		2.7	Denov tuman hokimligining aloqa va internet xizmati to‘lovlari uchun	12 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
III.	**Boshqa xarajatlarga**			**3 414 065,0**	***65,0%***	
3	Denov tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	3.1	Yashil makon davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida manzarali ko‘chat va gul ko‘chatlari sotib olish uchun	50 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		3.2	Obodonlashtirish boshkarmasining Avtotransport vositalariga ehtiyot qismlar sotib olish uchun hamda boshqarmaga yangidan sotib olingan maxsus texnikalarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va davlat raqamlar olish uchun	52 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		3.3	Denov tumanida ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish bo‘yicha hududini ta’mirlash uchun ketadigan qurilish materiallari sotib olish xarajatlariga (So‘fi Olloyor MFYga 80,0 mln so‘mi)	80 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		3.4	«Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturi asosida amalga oshirilayotgan tumandagi ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun bitum sotib olishga	102 457,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		3.5	«Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturi asosida amalga oshirilayotgan ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun bitum sotib olishga	245 543,0		*Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjet tushumlar hisobidan*
4	Denov tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga	4.1	Denov tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli “Shahrinav” mahallasida joylashgan 51-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti 2022-yilda 120-o‘ringa mo‘ljallab qurilganligi hozirgi kunda ushbu tashkilotga toza ichimlik suv tarmog‘i tortish va ulash, bolalar o‘ynashi uchun 4 ta o‘yin maydonchasi (besetkalar) qurish uchun ketadigan qurilish materiallari sotib olish	200 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		4.2	Denov tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 15-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini fasad qilish, atrofini temir panjara va devor bilan o‘rash uchun ketadigan qurilish materiallari sotib olish qurish uchun ketadigan qurilish materiallari sotib olish	151 256,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*

		4.3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-sonli qarorining 5-ilovasi 5- va 6-bandlariga asosan Denov tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli, tuman markazida joylashgan umumta’lim maktablariga kirish va chiqish joylari hamda sport maydonchalariga PTZ kameralarini o‘rnatish	200 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		4.4	Denov tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 79-umumta’lim maktabini ta’mirlash uchun qurilish materiallari sotib olishga	445 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		4.5	Denov tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 49-umumta’lim maktabiga 12-o‘rinli hojatxona qurishga qurilish materiallari sotib olish uchun	200 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		4.6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-393-sonli qaroriga asosan Denov tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 100-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab “Jasorat maktabi” sifatida faoliyat yuritish uchun ta’lim tashkilotida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘quv moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun kerak bo‘ladigan tovar moddiy boyliklar va jihozlar sotib olish xarajatlariga	196 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
		4.7	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-martdagi “Yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-61-sonli farmoniga asosan Denov tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 82-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘quvchi yoshlarni muhandislik-texnologiyalari va axborot-texnologiyalari sohasiga qiziqtirish bo‘yicha robototexnika va muhandislik laboratoriya markazini tashkil etish uchun jihoz va xom-ashyolar sotib olish xarajatlariga	150 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
5	O‘zbekiston mahallalar uyushmasining	5.1	Tumandagi "Lag‘monota" mahallasi binosini qurilishi uchun qurilishi materiallari sotib olishga	275 000,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*

	Denov tuman bo‘limiga					
6	Tuman sport maktabiga	6.1	Viloyat hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “Surxondaryo viloyatida 2025-yilda Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta’limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholini jismoniy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 111-8-0-Q/25-son qarori hamda xalq deputatlari tuman kengashining 2025-yil 28-apreldagi VI-8-48-8-111-Q/25-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida, Tumanda Sport musobaqalarini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar rejasiga asosan	52 987,0		*Daromadning oshgan qismi, daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan*
				147 013,0		*Yer uchastkalariga bulgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
7	Tuman hokimligiga	7.1	Denov tuman Mudofaa bo‘limi ta’mirlashga zarur bo‘lgan qurilish materiallarni sotib olish uchun	187 000,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
		7.2	Denov tuman Mudofaa bo‘limining xabar berish uchastkalarini jihozlash xarajatlariga	89 995,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
		7.3	Denov tuman iqtisodiy sudining 2022-yil 5-maydagi hal qiluv qaroriga asosan tumandagi "Ozod" mahallasi idorasi binosini qurishdan bo‘lgan qarzdorlikni to‘lash uchun	179 339,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
		7.4	Denov tumani DSI bo‘limiga 65 dona Sayt qurilmasini sotib olish uchun	178 750,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
		7.5	Denov tuman DSI bo‘limi tomonidan Denov tumanlararo Iqtisodiy Sudga mavjud qarzdorliklarni undirish yuzasidan ko‘rib chiqiladigan ishlar uchun Pochta xarajatlari uchun tulovlarga	31 725,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
		7.6	Denov tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar agentligi xodimlariga kompyuter jihozlari sotib olish uchun	200 000,0		*Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan qismidan*
IV.	**Taqsimlanmagan mablag‘**			**0,0**	***0,0%***	